

Muhandislik-seysmometrik kuzatuv stantsiyasi

O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari tomonidan muhandislik - seysmometrik kuzatuv stantsiyasi (MSKS) ishlab chiqildi. Ushbu qurilma individul tok manbasi asosida kechayu-kunduz ishlaydi va zilzilalar vaqtida seysmik kuchlarni binolarga hamda ularning zaminiga ta'sirini qayd etish uchun mo'ljallangan. MSKS intensivligi 3 ball va undan yuqori bo'lgan zilzilalar vaqtida o'lchash nuqtalari bo'yicha binolarni hamda zaminlarini tebranishlarini 20 sekund davomida yozib oladi. Qayd qilingan yozuvlar qayta ishlanadi, ma'lumotlar bazasi yaratiladi hamda ulardan seysmik kuchlar ta'sirida bino va inshootlarni deformatsiyalanish - zo'riqish holatlarini tadqiq qilishda foydalaniladi.



Qurilma turli maqsadlarda bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini instrumental-hisoblash orqali baholash, bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi masalalarini hisob usullari va matematik modellarini aniqlashtirish va binolarning konstruktiv yechimlarini hisobga olgan holda hisobiy sxemalarini hal qilish maqsadida tadqiqotlarni bajarishga mo'ljallangan.

Mazkur qurilmaning o'ziga xos xususiyati shundaki, doimiy rejimda ishlaydi, matematik ta'minotli kompyuter texnologiyasi asosida zilzila vaqtida signallarni yozib oladi, ma'lumotlarni fayllar ko'rinishida o'ziga saqlaydi va signallarni doimiy ravishda tahlil qiladi hamda qayta ishlov beradi.